

_____ -sonli **LIZING SHARTNOMASI**
(raqami)

_____ sh.
(joyi)

«___» _____ 20__y.
(sana)

Bir tarafdin AT «Aloqabank» (bundan keyin «**Lizing beruvchi**» deb yuritiladi) nomidan 20__ yil _____ dagi _____ - sonli Ishonchnoma asosida harakat qiluvchi _____
(sana) (raqami)
(HKXKM/KXKM) (lavozimi) (F.I.Sh.)

bir tarafdin va _____
(tashkilot .nomi)

(bundan keyin «**Lizing oluvchi**» deb nomlanadi), nomidan _____
(ustav/ishonchnoma)

asosida ish olib boruvchi _____
(F.I.Sh.)

boshqa Tomondan, (birgalikda «**Tomonlar**» deb ataladigan shaxslar) ushbu Lizing shartnomasini (bundan keyin - «**Shartnoma**») quyidagi mazmunda tuzdilar:

I. SHARTNOMANING PREDMETI

1.1. Lizing beruvchi ushbu Shartnomaning shartlariga muvofiq, Lizing ob'ektini sotib olib, Lizing oluvchiga haq evaziga, ushbu Shartnomada belgilangan muddat va shartlarida, tadbirkorlik faoliyatini yuritish maqsadida vaqtincha egalik qilish va foydalanish uchun berishga o'z roziligini beradi va Lizing oluvchi lizing bo'yicha to'lovlarni lizing to'lovlarini qaytarish jadvaliga muvofiq to'lash majburiyatini oladi.

1.2. Lizing ob'ekti bo'lmish _____
(lizing ob'ekti nomi)

_____ ning narxi (keyingi o'rinlarda «Mol-mulk» deb yuritiladi) _____ (_____) so'mni tashkil qiladi.
(summa) (summa so'z bilan)

1.3. Lizing oluvchining Arizasi (Ilova 1)ga muvofiq lizing ob'ektlari bo'lmish _____ (_____) so'm narxida
(lizing ob'ekti nomi) (summa) (summa so'z bilan)
sotib olinishi lozim.

II. MOL-MULKNI YETKAZIB BERISH VA FOYDALANISHGA TOPSHIRISH

2.1. Shartnomada keltirilgan shartlarga muvofiq mol-mulk Lizing beruvchi tomonidan Lizing oluvchiga qabul qilish-topshirish dalolatnoma asosida topshiriladi.

2.2. Agar Lizing beruvchi shartnoma shartlari bilan belgilangan muddatda mol-mulkni yetkazib berish to'g'risida Sotuvchi bilan kelishish imkoniyati bo'lmasa, mol-mulkni yetkazib berish muddati taraflar qayta kelishilgan va Sotuvchi mol-mulkni yetkazib berishni (topshirishni) kafolatlagan kungacha uzaytirilishi mumkin.

2.3. Mol-mulkni sotib olish va vakolatli organlarda davlat ro'yxatiga olish bilan bog'liq barcha xarajatlar va soliqlar Lizing oluvchi hisobidan amalga oshiriladi.

III. EGALIK HUQUQI, BUXGALTERIYA HISOBI VA QOIDALARI, LIZING OB'EKTING AMORTIZASIYASI

3.1. Ushbu Shartnomaning butun amal qilish muddati davomida lizingga berilgan mol-mulkka egalik huquqi Lizing beruvchida qoladi. Mol-mulkka egalik qilish va undan foydalanish huquqi Lizing oluvchiga ushbu Shartnomada ko'zda tutilgan cheklovlar bilan o'tadi.

3.2. Mol-mulk Lizing oluvchining balansida hisobga olinadi va unga tezashtirilgan amortizatsiya qo'llaniladi.

IV. LIZING TO'LOVLARI, SHARTNOMA SUMMASI VA LIZING MUDDATI

4.1. Lizing bo'yicha asosiy qarzni to'lash tartibi va muddatlari ushbu shartnomaning ajralmas qismi bo'lgan jadvalda belgilanadi va lizing ob'ektidan foydalanish uchun foizlar ushbu Shartnomaning shartlariga muvofiq to'lanadi. Mol-mulkni yetkazib berish muddati o'zgargan taqdirda, Lizing oluvchi Lizing beruvchi bilan kelishilgan holda, lizing to'lovlarini amalga oshirish jadvalini o'zgartirishga haqlidir.

4.2. Ushbu Lizing shartnomasining umumiy summasi _____
(*summa*)

(_____) so'mni tashkil qiladi.
(*summasi so'z bilan*)

4.3. Lizing ob'ekti uchun to'lov ushbu shartnoma bo'yicha Lizing beruvchining _____ (_____) so'm miqdoridagi pul mablag'lari hisobidan
(*summa*) (*summasi so'z bilan*)

amalga oshiriladi, qolgan qismi esa Lizing oluvchining so'mdagi pul mablag'lari hisobidan, ya'ni lizingga olingan ob'ekt qiymatining kamida _____%i yoki
(*% miqdori*)

_____ (_____) so'm miqdorida to'lanadi. Bunda,
(*summasi*) (*summasi so'z bilan*)

Lizing oluvchi so'mdagi pul mablag'larini Lizing beruvchi, Sotuvchi va Lizing oluvchi o'rtasida tuzilgan Lizing ob'ektini sotib olish-sotish shartnomasi tuzilgan kundan 10 ish kuni ichida Lizing beruvchining AK Alokabank _____, MFO _____,

(*HKXKM/KXKM*)

STIR _____, _____ - sonli joriy hisobvarag'iga o'tkazishi shart.
(*hisobvaraqa raqami*)

4.4. Lizing oluvchi ushbu shartnomaning 4.3-bandida keltirilgan shartlarini bajarganidan keyin Lizing beruvchi _____ (_____)
(*summa*) (*summasi so'z bilan*)

so'm miqdoridagi pul mablag'larini Sotuvchining hisobvarag'iga, Lizing ob'ektini sotib olish-sotish shartnomasi bo'yicha sotib olish maqsadida o'tkazadi.

4.5. Lizing ob'ektidan foydalanish uchun foiz stavkasi yillik ___% miqdorida belgilanadi va foizlar lizing berilgan kundan boshlab har kuni hisoblanadi.

4.6. Lizing ob'ektidan foydalanish uchun foizlar har oyning _____-kunida, Lizing ob'ektini qabul qilish-topshirish dalolatnomasi imzolangan kundan boshlab Lizing oluvchi tomonidan to'lanadi (yoki Lizing beruvchi tomonidan undiriladi).

4.7. Lizing bo'yicha asosiy qarz o'z vaqtida, jadvalga muvofiq, to'lanmagan taqdirda lizing ob'ektidan foydalanish uchun foiz stavkasi _____barobar (lizing bo'yicha asosiy qarzning muddati o'tgan qismiga yillik ___ foizga) ko'payadi.

4.8. Lizing oluvchining tashabbusi bilan ushbu Shartnomaning shartlari o'zgartirilgan taqdirda, Bank ularni ko'rib chiqadigan kunda o'zining tariflariga muvofiq eng kam bazaviy hisoblash miqdori (BHM)ning _____ barobar miqdorida
(*miqdori*) komissiya undirish huquqiga ega.

4.9. Lizing xizmatlari uchun Lizing oluvchi ushbu shartnoma imzolangan paytdan boshlab Lizing ob'ektini qabul qilish-topshirish dalolatnomasi imzolangan qadar har oy, har bir kun uchun, keyingi oyning 11-kunidan boshlab, Lizing beruvchiga yillik ___% miqdorida foiz to'laydi (yoki Lizing beruvchi tomonidan undiriladi).

4.10. Lizing oluvchining tashabbusi bilan Lizing beruvchi bilan oldindan kelishmay turib (xabardor qilmasdan) jadval bo'yicha belgilangan muddatdan 30 kundan avval lizing to'lovlarini muddatidan oldin qaytargan taqdirda, Lizing beruvchi o'z ixtiyoriga ko'ra muddatidan oldin qaytarilgan summaning har bir kuni uchun ___% miqdorida komissiya undirishga haqlidir. Komissiya lizing to'lovi muddatidan oldin to'langan kundan boshlab, jadval bo'yicha belgilangan to'lov kunigacha bo'lgan davr uchun undiriladi.

4.11. Lizing muddati – 20__ yil _____dan 20__ yil _____gacha.

4.12. Lizing bitimi amalga oshirilish jarayonida Lizing beruvchi tomonidan qilingan barcha xarajatlar Lizing oluvchi tomonidan uning asosiy bank hisobvarag'iga Lizing beruvchi tomonidan akseptsiz to'lov talabnomasini berish yo'li bilan qoplanadi.

4.13. Ushbu Shartnoma Lizing oluvchi u bo'yicha o'z majburiyatlarini to'liq bajargunga qadar amal qiladi.

V. SIFAT VA KOMPLEKTLILIK

5.1. Lizing oluvchi mol-mulkni ushbu shartnomaning 2.1-bandida keltirilgan shartlarga muvofiq qabul qilishni o'z zimmasiga oladi.

5.2. Sotuvchi sotish va sotib olish shartnoma bo'yicha zimmasiga olgan majburiyatlarini bajarmaganligi uchun Lizing beruvchi javobgar bo'lmaydi.

5.3. Lizing oluvchi Sotuvchi, Lizing beruvchi va Lizing oluvchi o'rtasida tuzilgan mol-mulkni sotish va sotib olish to'g'risidagi shartnomada ko'rsatilgan mahsulotning sifati va kompleksliligi bo'yicha talablarni to'g'ridan-to'g'ri mol-mulkni Sotuvchiga taqdim etish huquqiga ega.

VI. MOL-MULKNING JOYLASHISHI, FOYDALANISH SHARTLARI, LIZING OB'EKTING TOPSHIRILISHI

6.1. Ushbu shartnomaning amal qilish muddati davomida mol-mulk

(*manzili*)

da joylashadi. Mol-mulk joylashgan joy faqat Lizing beruvchining yozma roziligi bilan o'zgartirilishi mumkin.

6.2. Lizing oluvchi quyidagilarni o'z zimmasiga oladi:

- Lizing ob'ektidan belgilangan maqsadiga qat'iy rioya qilgan holda foydalanish;
- tegishli standartlar, texnik shartlar, texnik ekspluatatsiya qilish qoidalari va ishlab chiqaruvchining ko'rsatmalariga rioya qilish;
- mol-mulkni soz holatda saqlash;
- lizing ob'ektining holatini muntazam ravishda tekshirib turish;
- Lizing beruvchi bilan shartnomada boshqacha tartib nazarda tutilgan bo'lmasa, mol-mulkni lozim darajadagi holatda saqlash va barcha shikastlangan qismlarni Sotuvchi tomonidan yetkazib berilgan yoki tavsiya etilgan qismlarga almashtirish. Ushbu shart bajarilmagan taqdirda, Lizing beruvchi Lizing oluvchidan ta'mirlashni talab qilishga haqli va Lizing oluvchi o'z hisobidan ta'mirlashni zimmasiga oladi;
- ushbu soha mutaxassisleri tomonidan Lizing ob'ektidan amaliy jihatdan to'g'ri foydalanishni ta'minlash;
- ushbu soha mutaxassisleri tomonidan Lizing ob'ektiga ko'rsatiladigan barcha turdagi xizmatlar uchun o'z vaqtida haq to'lab borish;
- Lizing ob'ektidan foydalanish uchun barcha zarur bo'lgan ro'yxatga olish, litsenziyalash va boshqa talablarni bajarish;
- Lizing ob'ektlarini vakolatli organlar tomonidan ro'yxatga olish tartiblarini amalga oshirish;
- barcha xarajatlar, bojlar, har qanday soliqlar (mol-mulk va yer solig'i), shu jumladan QQS va Lizing beruvchi tomonidan ushbu shartnomani bajarish bilan bog'liq amalga oshirilgan/to'langan boshqa xarajatlar, shuningdek mol-mulkni sotish va sotib olish shartnomasi bo'yicha xarajatlarni qoplash (shartnoma summasi bundan mustasno);
- Lizing ob'ektiga tezashtirilgan amortizatsiyani qo'llash;

6.3. Lizing ob'ektini qabul qilish-topshirish dalolatnomasi Lizing beruvchi va Lizing oluvchining vakolatli vakillari tomonidan ushbu dalolatnoma Lizing ob'ektiga egalik huquqi Lizing beruvchining nomiga vakolatli organlar tomonidan davlat ro'yxatiga olingandan so'ng 10 bank ish kuni davomida imzolanadi.

VII. LIZING OB'ECTIGA O'ZGARTIRISHLAR KIRITISH

7.1. Lizing oluvchi Lizing beruvchining yozma rozilgisiz Lizing ob'ektiga har qanday (ajralgan va ajralmas) o'zgartirish yoki takomillashtirishlarni kiritishga haqli emas.

7.2. Mol-mulkka kiritilgan har qanday o'zgartirish yoki takomillashtirishlar, shu jumladan Sotuvchi va Lizing beruvchining yozma roziligi bilan Lizing oluvchi tomonidan kiritilgan o'zgartirish yoki takomillashtirishlar, Lizing ob'ektining bir qismi hisoblanadi.

VIII. USHBU SHARTNOMA BO'YICHA HUQUQ VA MAJBURIYATLARNI UCHINCHI TARAFGA O'TISHI

8.1. Lizing beruvchining huquqlarini uchinchi shaxslarga o'tishi.

8.1.1. Ushbu shartnoma bo'yicha Lizing beruvchining huquqlari (talablari) to'liq yoki qisman uchinchi shaxslarga berilishi mumkin. Bunday holda, Lizing beruvchi uning huquqlari (talablari) boshqa shaxs foydasiga voz kechilgan kundan boshlab 30 kun ichida ushbu haqda Lizing oluvchini xabardor qilishi lozim.

8.2. Lizing oluvchining huquq va majburiyatlarini uchinchi shaxslarga o'tishi.

8.2.1. Lizing oluvchi quyidagilarga haqli emas:

- mol-mulkni sotish hamda begonalashtirishga qaratilgan boshqa harakatlarni amalga oshirish;

- mol-mulkni hissa sifatida xo'jalik jamiyat va shirkatlarining, shuningdek boshqa tashkilotlarining ustav kapitaliga qo'shish;

- mol-mulkni topshirish yoki qayta garovga qo'yish.

8.2.2. Lizing oluvchi Lizing beruvchining yozma roziligisiz mol-mulkka nisbatan quyidagi harakatlarni amalga oshirishga haqli emas:

- mol-mulkni sublizingga berish;

- ushbu shartnoma bo'yicha huquq va majburiyatlarni o'tkazish (qayta ijara);

- mol-mulkni bepul foydalanishga berish;

- lizing huquqlarini garovga qo'yish;

- uchinchi shaxslarni lizing ob'ekti konstruksiyasi va texnik xususiyatlari bilan tanishtirish.

IX. LIZING OB'KTINI MONITORINGDAN O'TKAZISH

9.1. Lizing beruvchining belgilangan tartibda vakolatlangan vakillari mol-mulkni monitoringdan o'tkazishga haqlidir.

Ushbu band ijrosini tashkil etish maqsadida Lizing oluvchi o'zining korxonasida belgilangan ish vaqti davomida Lizing beruvchi vakillari tomonidan mol-mulk joylashgan va/yoki foydalaniladigan binolar (hududlar)ga erkin tashrif buyurishlarini ta'minlash majburiyatini oladi.

X. MOL-MULKNING TASODIFIY NOBUD BO'LISHI XAVFI, UNING YO'QOTILISHI VA SHIKASTLANISHI OQIBATLARI

10.1. Mol-mulkning tasodifan nobud bo'lish va shikastlanish xavfi Lizing ob'ektini qabul qilish-topshirish dalolatnomasi imzolangan paytdan boshlab Lizing oluvchiga o'tadi.

10.2. Mol-mulk shikastlangan holda, Lizing oluvchi Lizing beruvchini 3 kalendar kun ichida ogohlantirgan holda, zudlik bilan mol-mulkni o'zining hisobidan tiklashi va lozim darajadagi holatda va ish rejimida saqlashi shart. Bunday holda, ushbu shartnomaning shartlari o'zgarmaydi va Lizing oluvchi shartnomada nazarda tutilgan tartib va muddatlarda lizing to'lovlarini to'lab boradi.

10.3. Mol-mulk yo'qotilgan taqdirda hamda shikastlanib, tiklanishi mumkin bo'lmagan holatda bo'lsa, Lizing oluvchi zudlik bilan quyidagi harakatlardan birini amalga oshirishi shart:

- ushbu Shartnoma bo'yicha Lizing beruvchiga o'tkazilishi lozim bo'lgan lizing to'lovlari summasi bilan mol-mulk nobud bo'lgan yoki shikastlangan vaqtida amalga

o'shirilgan lizing to'lovlari summasi o'rtasidagi farqni Lizing beruvchiga o'tkazadi. Lizing to'lovlarning to'liq miqdori to'langan paytdan boshlab ushbu shartnoma o'z kuchini yo'qotadi va mol-mulkka egalik huquqi Lizing oluvchiga o'tadi;

– ushbu shartnoma bo'yicha olingan mol-mulk kabi mol-mulkni sotib oladi. Bunday holda, ushbu shartnomaning shartlari o'zgarmaydi va Lizing oluvchi shartnomada nazarda tutilgan tartib va muddatlarda lizing to'lovlarni to'lab boradi.

XI. SUG'URTALASH

11.1. Lizing ob'ekti quyidagi guruhlarga bo'lingan tavakkalchiliklardan sug'urtalangan bo'lishi kerak: a) yo'qotilishi (nobud bo'lishi), yong'in, muddatidan avval eskirishi, shikastlanishi, tiklanishi mumkin bo'lmagan darajada shikastlangan ob'ektlar, b) baxtsiz hodisalar va boshqa turdagi tavakkalchiliklar, v) yo'l-transport hodisalari. Sug'urta shartnomasi Lizing ob'ektiga egalik huquqi Lizing beruvchining nomiga vakolatli organlar tomonidan davlat ro'yxatiga olingan kundan boshlab 5 bank ish kuni ichida tuzilishi kerak.

11.2. Lizing oluvchi Lizing ob'ektini sug'urtalash uchun javobgardir. Lizing ob'ekti lizing shartnomasi amal qilish muddati davomida sug'urtalangan bo'lishi kerak. Sug'urta shartnoma bo'yicha Lizing ob'ektining Naf oluvchisi bo'lib Lizing beruvchi hisoblanadi va sug'urta shartnomasining barcha shartlari u bilan oldindan kelishilishi kerak. Sug'urta shartnoma va sug'urta polisining asl nusxalari Lizing ob'ektini qabul qilish-topshirish dalolatnomasi imzolanishidan oldin Lizing beruvchiga topshirilishi kerak.

11.3. Lizing beruvchi ushbu shartnomadan kelib chiqadigan tadbirkorlik tavakkalchiliklarni sug'urta qilishga haqlidir. Barcha hollarda Lizing beruvchi tadbirkorlik tavakkalchiliklarni sug'urtalash shartnomasi bo'yicha Sug'urta qildiruvchi va Naf oluvchi bo'lib hisoblanadi.

11.4. Ushbu Shartnomada ko'zda tutilgan har qanday sug'urta majburiyatlari ushbu Shartnomaning butun muddati davomida amal qilish kuchiga ega bo'lishlari kerak.

XII. SUG'URTA TO'LOVLARI

12.1. Lizing ob'ekti bilan yuz bergan sug'urta hodisalari bo'yicha to'lanadigan barcha summalar Lizing beruvchi tomonidan olinadi.

Lizing oluvchi mol-mulkning nobud bo'lishi yoki shikastlanishi, uning hisobidan jarima va foizlarni to'lanishi natijasida yuzaga kelgan zararlarni Lizing beruvchiga qaytarib bersa, ko'rsatilgan summalar bilan Lizing beruvchiga kelib tushgan sug'urta to'lovlari summasi o'rtasidagi farq pul mablag'lar Lizing beruvchining hisobvarag'iga tushgan paytdan 10 kundan kechiktirmay Lizing oluvchining hisobvarag'iga o'tkaziladi.

Zarar va neustoykalar Lizing oluvchi tomonidan qisman qaytarilgan taqdirda, Lizing beruvchi Lizing oluvchiga to'lanmagan qarzdorlik summasi chegirilgan holda sug'urta to'lovi summasini o'tkazadi.

12.2. Sug'urta shartnomalardan olingan mablag'larning yetishmasligi ushbu shartnomada ko'zda tutilgan lizing to'lovlar, jarimalar va neustoykalarni to'liq qoplash uchun zarur bo'lgan miqdorda Lizing oluvchidan undirish uchun asosdir.

XIII. TARAFLARNING O'Z MAJBURIYHTLARINI BAJARISHINI TA'MINLASH USULLARI

13.1. Lizing oluvchining Ushbu shartnoma bo'yicha o'z zimmasiga olgan majburiyatlarini lozim darajada bajarishi, Lizing ob'ektining umumiy qiymati 30% miqdoriga teng bo'lgan va Lizing oluvchi tomonidan oldindan to'lanadigan to'lovi hisobidan qisman ta'minlanadi.

XIV. TARAFLARNING USHBU SHARTNOMA BO'YICHA O'Z ZIMMASIGA OLGAN MAJBURIYATLARINI BAJARMAGAN (LOZIM DARAJADA BAJARMAGAN) TAQDIRDA ULARGA YUKLATILADIGAN JAVOBGARLIK

14.1. Lizing beruvchining javobgarligi:

14.1.1. Lizing oluvchi mol-mulkni yetkazib berish muddatlariga rioya qilmaganligi haqidagi da'volarini to'g'ridan-to'g'ri Sotuvchiga taqdim etish huquqiga ega, shu bilan birga Lizing beruvchi Sotuvchi tomonidan mol-mulkning sotib olish-sotish shartnomasida belgilangan muddatlarda yetkazib bermaganligi uchun javobgar bo'lmaydi.

14.2. Lizing oluvchining javobgarligi:

14.2.1. Lizing oluvchining aybi bilan mol-mulk o'z vaqtida qabul qilinmagan taqdirda, Lizing oluvchi kechiktirilgan har bir kun uchun ushbu Shartnomani umumiy summasining 0,01% miqdorida, ammo ushbu shartnoma summasining 10 foizidan ortiq bo'lmagan miqdorda neustoyka to'laydi.

14.2.2. Lizing oluvchi ushbu shartnomaning 6.2-bandida nazarda tutilgan majburiyatlarini bajarmagan yoki lozim darajada bajarmagan taqdirda, Lizing beruvchi Lizing ob'ektini Lizing oluvchidan olib qo'yishga va lizing bo'yicha qarzdorlik qoldig'i summasining 10% miqdorida jarima undirishiga haqlidir. Lizing oluvchi tomonidan to'lanmagan lizing to'lovlari qoldig'i va lizing foizlari ushbu holatlarda BANK tomonidan muddatidan oldin nizosiz tartibda Lizing oluvchining asosiy talab qilib olinguncha depozit hisobvarag'idan yoki bankda ochilgan boshqa hisobvaraqlaridan undiriladi. Jarimani to'lanishi Lizing oluvchini 6.2-bandda nazarda tutilgan majburiyatlarni bajarishdan ozod etmaydi.

14.2.3. Agar Lizing oluvchi ushbu shartnomaning 9.1-bandida ko'zda tutilgan mol-mulkni monitoringdan o'tkazish imkoniyatini yaratib bermasa, Lizing oluvchi ushbu shartnomani umumiy summasining _____% miqdorida jarima to'laydi.

14.2.4. Lizing beruvchiga ushbu shartnomaning 18.1-bandida ko'zda tutilgan hujjatlar taqdim etilmagan taqdirda, Lizing oluvchi ushbu shartnomani umumiy summasining 1% miqdorida jarima to'laydi.

14.2.5. Ushbu Shartnomaning 8.2.2-bandida sanab o'tilgan harakatlar Lizing beruvchining yozma roziligisiz amalga oshirilgan taqdirda, Lizing oluvchi jarima to'laydi, jumladan:

– mol-mulk sublizingga berilganda – ko'rsatilgan shartnomaga muvofiq olingan barcha summalar miqdorida, ammo Lizing oluvchi mol-mulk sublizing oluvchining egaligida bo'lgan har bir oy uchun Lizing beruvchiga to'lashi kerak bo'lgan summadan kam bo'lmagan miqdorda;

– ushbu shartnomaning 8.2.2-bandida sanab o'tilgan boshqa harakatlar amalga oshirilgan bo'lsa, Lizing oluvchi ushbu shartnomaning umumiy summasidan 5% miqdorida jarima to'laydi.

14.2.6. Lizing oluvchi mol-mulkni sug'urtalash shartnomasini tuzmagan va ushbu shartnomada ko'zda tutilgan muddatlarda sug'urta polisini taqdim etmagan holda, Lizing beruvchi tegishli shartnoma tuzilgunga qadar va sug'urta polisi taqdim etilgunga qadar mol-mulkni o'zida ushlab turish huquqiga ega.

14.2.7. Sug'urta shartnomasi tuzilgan kundan boshlab 10 kun mobaynida sug'urta mukofoti to'langanligini tasdiqlovchi hujjatlar taqdim etilmasa, Lizing beruvchi mol-mulkni o'z mablag'lari hisobidan sug'urtalashga va sug'urta bilan bog'liq barcha xarajatlar Lizing oluvchi tomonidan qoplanishini talab qilishga haqlidir. Bunday holda, Lizing oluvchi 15 kun ichida ushbu shartnomada ko'rsatilgan xarajatlarni qoplash va shartnomaning umumiy summasidan 1% miqdorida jarima to'lash majburiyatini oladi.

14.2.8. Lizing oluvchining aybi bilan mol-mulk shikastlansa va u ushbu shartnomaning 10.2-bandiga muvofiq o'z zimmasiga olgan majburiyatlarini bajarmasa, Lizing beruvchi mol-mulkni o'z hisobidan tiklash huquqiga ega. Bunday holda, Lizing oluvchi Lizing beruvchi tomonidan amalga oshirilgan barcha xarajatlarni qoplash va ushbu shartnomaning umumiy summasidan 10% miqdorida jarima to'lash majburiyatini oladi.

14.2.9. Ushbu shartnoma bo'yicha lizing qaytarilishini ta'minoti sifatida (20__ yil ____dagi mol-mulk qiymatini kelishuv dalolatnomasiga muvofiq) «_____»ga tegishli _____ so'm qiymatidagi mol-mulk garovi taqdim etadi, ya'ni:

1. _____ so'm miqdoridagi
_____ garov.
2. _____ so'm miqdoridagi
_____ garov.
3. _____ so'm miqdoridagi
_____ garov.

Garov predmeti belgilangan tartibda butun lizing davri uchun Bank foydasiga sug'urtalanashi lozim. Sug'urta shartnomasi, sug'urta polisi va notarial idora tomonidan tasdiqlangan garov shartnomasining asl nusxalari Bankka taqdim etiladi.

Ushbu shartnoma bo'yicha lizingni ta'minlashning muayyan shartlari lizing shartnomasining ajralmas qismi bo'lgan alohida garov shartnomasi bilan tartibga solinadi.

XV. PUL MABLAG'LARNI NIZOSIZ TARTIBDA HISOBDAN CHIQRISH

15.1. Lizing beruvchi pul mablag'larini nizosiz tartibda Lizing oluvchidan undirib olish huquqiga ega va Lizing oluvchi ushbu bilan quyidagi hollarda barcha hisobvaraqlaridan pul mablag'larini akseptsiz ravishda undirilishiga o'z roziligini beradi:

a) agar Lizing oluvchi, lizing shartnomasi bilan belgilangan to'lov muddati o'tganidan so'ng ketma-ket ikki martadan ziyod lizing ob'ektidan foydalanganlik uchun to'lanmagan lizing to'lovlari summasi miqdorida haq to'lamasa.

b) agar Lizing oluvchi Lizing ob'ektini soz holatda saqlamasa va bu uning iste'mol sifatini ushbu shartnomaning umumiy summasidan 10 foizi miqdorida yomonlashishiga olib kelsa.

XVI. LIZING OLUVCHINING TASHABBUSI BILAN SHARTNOMANI BEKOR QILINISHI

16.1. Agar Lizing beruvchi ushbu shartnoma shartlari yoki mol-mulkning maqsadiga muvofiq undan foydalanishga to'siqlar yaratayotgan taqdirda, ushbu shartnoma Lizing oluvchining tashabbusi bilan sud orqali bekor qilinishi mumkin.

XVII. LIZING BERUVCHINING TASHABBUSI BILAN SHARTNOMANI BEKOR QILINISHI

17.1. Ushbu Shartnoma quyidagi hollarda Lizing beruvchining tashabbusi bilan sud orqali bekor qilinishi mumkin:

Lizing oluvchi:

- mol-mulkning sifatini sezilarli darajada yomonlashtirsa;
- ushbu shartnomada ko'rsatilgan to'lov muddati o'tganidan so'ng ketma-ket ikki martadan ziyod lizing to'lovlari amalga oshirilmasa.

Lizing beruvchining sudga murojaat etish huquqi u tomonidan Lizing oluvchiga yuborilgan xabarnomada aniqlangan kamchiliklar belgilangan muddat ichida bartaraf etish to'g'risidagi talab ko'rsatilganidan so'ng paydo bo'ladi.

17.2. Lizing beruvchi quyidagi hollarda ushbu shartnomani bajarishdan bir taraf lama bosh tortishiga haqlidir:

- ushbu shartnomaning 8.2.1-bandida nazarda tutilgan harakatlar Lizing oluvchi tomonidan sodir etilishi;
- ushbu shartnomaning 8.2.2-bandida nazarda tutilgan harakatlar Lizing beruvchining yozma rozilgisiz sodir etilishi.

17.3. 17.2-bandida sanab o'tilgan holatlarning paydo bo'lishi ushbu shartnomaning bekor qilinishiga olib keladi.

XVIII. FAOLIYAT TO'G'RISIDAGI HISOBOT

18.1. Lizing oluvchi har chorakda Lizing beruvchiga uning moliyaviy holati to'g'risidagi hujjatlarni, hamda mol-mulkning joylashgan joyi va holati to'g'risidagi ma'lumotlarni taqdim etishni o'z zimmasiga oladi. Ushbu shartnomaning maqsadlari uchun Lizing oluvchining moliyaviy holati to'g'risidagi ma'lumotlar deb quyidagi hujjatlarni taqdim etilishi tushuniladi:

- Lizing oluvchining balans hisoboti;
- foyda va zararlar to'g'risidagi hisobot;
- debitorlik va kreditorlik qarzdorliklar to'g'risidagi ma'lumotnoma;
- Lizing beruvchining talabiga binoan boshqa hujjatlar.

XIX. SHARTNOMA BEKOR QILINGANDA MOL-MULKNING TAQDIRI

19.1. Lizing shartnomaning amal qilish muddati tugaganidan so'ng, ushbu shartnoma bo'yicha lizing va boshqa to'lovlar to'liq miqdorda amalga oshirilish sharti bilan, mol-mulkka egalik huquqi Lizing oluvchiga o'tadi. Bunda, Lizing ob'ektlarni Lizing oluvchining nomiga qayta ro'yxatga olish bilan bog'liq barcha xarajatlar Lizing oluvchi tomonidan to'lanadi.

19.2. Lizing beruvchining yozma roziligi bilan Lizing oluvchi ushbu Shartnomaning amal qilish muddati tugashidan oldin, ammo Lizing ob'ektini qabul qilish-topshirish dalolatnomasi imzolangan paytdan boshlab 12 oy o'tgach, lizing to'lovlarini to'liq miqdorda to'lash huquqiga ega. Bunday holda, mol-mulkka egalik huquqi 4.1-bandda ko'rsatilgan summalar va ushbu shartnoma bo'yicha boshqa to'lovlar to'liq to'langan paytdan boshlab Lizing oluvchiga o'tadi.

19.3. Shartnoma muddatidan oldin bekor qilinishi to'g'risidagi xabarnoma Lizing oluvchi tomonidan olinganidan so'ng, u Lizing ob'ektidan foydalanish huquqidan mahrum etilib, xabarnoma olgan kundan boshlab 30 kun ichida mol-mulkni Lizing beruvchiga u tomonidan belgilangan joyda topshirishi kerak. Bunda mol-mulkni qaytarish bilan bog'liq barcha xarajatlar Lizing oluvchi tomonidan qoplanadi. Lizing oluvchi tomonidan amalga oshirilgan barcha xarajat va lizing to'lovlari qaytarilmaydi.

XX. LIZING OB'EKTINI QAYTARILISHI, TALAB ETILISHINING SHARTLARI VA TARTIBI

20.1. Lizing oluvchi ushbu shartnomaning 6.2-bandida va 8.2-bandida ko'rsatilgan shartlarni yoki ushbu Shartnomaning boshqa shartlarini buzgan taqdirda, hamda O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida yoki ushbu Shartnomada nazarda tutilgan boshqa hollarda, Lizing ob'ekti Lizing beruvchining talabi bo'yicha qaytarilishi lozim.

Lizing oluvchi Lizing beruvchining Lizing ob'ektini qaytarish haqidagi talabini olgandan so'ng, mazkur talab olingan kundan boshlab 30 kun ichida Lizing beruvchining ixtiyoriga ko'ra yoki zudlik bilan Lizing ob'ektini u haqiqatda turgan joyida Lizing beruvchining vakillariga topshirish yo'li bilan qaytarishi shart. Lizing ob'ektining miqdori bo'yicha qaytarilishi Taraflar tomonidan imzolangan qaytarish dalolatnomasi bilan rasmiylashtiriladi. Lizing oluvchi, Lizing ob'ektini Lizing beruvchiga qaytarib bergan paytdan boshlab, ushbu shartnomada ko'zda tutilgan Lizing ob'ektini qaytarib olish huquqini yo'qotmaydi (taqdim etilgan sotib olish huquqidan foydalanmagan deb hisoblanadi), agar u ob'ekt qaytarib berilgandan so'ng 30 kun ichida to'lanishi lozim bo'lgan to'lovlar qoldig'ini to'lasa. Mazkur sotib olish huquqi Lizing beruvchining yozma roziligi bilan Lizing oluvchida keyinchalik ham saqlanib qolishi mumkin.

20.2. Lizing Ob'ektini Lizing oluvchidan talab qilib olish tartibi va asoslari O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari va ushbu Shartnomaning normalari bilan belgilanadi. Lizing oluvchi ushbu shartnomani 6.2-bandida va 8.2-bandida ko'rsatilgan shartlarni buzgan taqdirda Lizing beruvchi Lizing ob'ektini O'zbekiston Respublikasining Xo'jalik protsessual kodeksiga muvofiq sud buyrug'i tartibida yoki notariusning ijro yozuviga muvofiq notarial tartibda nizosiz talab qilib olish huquqiga ega.

20.3. Lizing ob'ektini qaytarilishi yoki talab qilib olinishi Lizing oluvchini ushbu Shartnoma bekor qilingan paytda u bo'yicha paydo bo'lgan majburiyatlarni bajarishidan

ozod etmaydi. Ushbu holda, Lizing beruvchiga haqiqatdan kelib tushgan va u tomonidan ushbu Shartnoma bo'yicha Lizing oluvchining lizing to'lovlari va/yoki boshqa pul majburiyatlarini qaytarish uchun hisobga olingan to'lovlar qaytarilmaydi.

20.4. Qaytarilgan yoki talab qilib olingan Lizing ob'ektining holatini baholash maqsadida, Lizing beruvchining ixtiyoriga ko'ra, Lizing ob'ektini erkin bozorda darhol/tez sotilishi mumkin bo'lgan qiymatini (keyingi o'rinlarda – «Lizing ob'ektining narxi» deb yuritiladi) belgilaydigan mustaqil baholovchi (keyingi o'rinlarda – «baholovchi» deb yuritiladi) jalb etiladi. Baholovchi Lizing beruvchi tomonidan bir taraf lama va mustaqil ravishda tanlanadi. Lizing ob'ektini baholashda baholovchi o'zining hisob-kitob usullaridan foydalanadi.

20.5. Baholovchining xizmatiga haq to'lash bilan bog'liq xarajatlar Lizing oluvchiga yuklatiladi. Baholovchining xizmatlari Lizing beruvchi tomonidan to'langan taqdirda, Lizing oluvchi Lizing beruvchining talabiga binoan to'lovga hisobini (hisobvara q-fakturani) olgan paytdan boshlab 10 kalendar kun ichida baholovchining xizmati bilan bog'liq bo'lgan xarajatlarni, shu jumladan O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan qo'shimcha qiymat solig'ini to'liq hajmda to'lashi shart.

XXI. FORS-MAJOR (engib bo'lmaydigan kuchlar holati)

21.1. Ushbu shartnoma bo'yicha qabul qilingan majburiyatni bajarmagan yoki lozim darajada bajara olmagan taraf, ushbu holat yengib bo'lmas kuch ta'sirida, ya'ni favqulodda va oldini olib bo'lmaydigan holatlarga bog'liq bo'lganini isbotlab bera olmasa, javobgar bo'ladi.

21.2. Fors-major holatlar yuzaga kelishi natijasida o'z majburiyatlarini bajara olmaydigan va javobgarlikdan ozod etilishini da'vo qiluvchi taraf, fors-major holatlari ma'lum bo'lgandan keyin darhol bu haqda boshqa tarafni yozma ravishda xabardor qilishi shart.

21.3. Javobgarlikdan ozod etish uchun asos to'siq paydo bo'lgan paytdan e'tiboran yoki xabarnoma o'z vaqtida berilgan bo'lmasa, xabar berilgan kundan boshlab, kuchga kiradi. Xabarnomani yo'qligi ushbu shartlarni buzgan tarafga oldi olinishi mumkin bo'lgan zararlarni to'lash majburiyatini yuklatadi.

21.4. Fors-major holatlarini 6 oy davomida saqlanib qolishi ushbu shartnomani bekor qilinishi uchun asos bo'ladi.

XXII. SHARTNOMANING AMAL QILISH MUDDATI

22.1. Ushbu shartnoma taraflar uni imzolagan paytdan boshlab kuchga kiradi va u bo'yicha majburiyatlarini to'liq bajargunga qadar amal qiladi.

XXIII. NIZOLARNI HAL ETILISHI

23.1. Ushbu shartnomadan kelib chiqadigan nizolarni Taraflar muzokaralar yo'li bilan hal qilish uchun barcha zarur harakatlarni amalga oshirishni o'z zimmalariga oladilar.

23.2. Vujudga kelgan nizo va kelishmovchiliklar muzokaralar o'tkazish yo'li bilan o'zaro hal etilmasa, ular O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlariga muvofiq xo'jalik sudi tomonidan hal etiladi.

XXIV. BOSHQA SHARTLAR

24.1. Ushbu bilan Lizing beruvchi Lizing oluvchiga Lizing ob'ektidagi defektlar, uni o'z vaqtida yetkazib berilishi va to'laligi bilan bog'liq, hamda Lizing ob'ektini o'rnatilish majburiyatlarining bajarilmasligi bilan bog'liq da'volar bilan ishlab chiqaruvchi (sotuvchi)ga chiqish huquqini beradi.

24.2. Lizing oluvchi Lizing ob'ektiga sotuvchi/ishlab chiqaruvchi tomonidan berilgan kafolatdan foydalanadi.

24.3. Ushbu Shartnomani bekor qilinishi taraflarni Shartnoma bekor qilinishidan oldin bir-biriga taqdim etgan talablarni qondirish majburiyatidan ozod qilmaydi.

24.4. Ushbu shartnomaga kiritilgan har qanday o'zgartirish va qo'shimchalar faqat yozma shaklda tuzilgan va taraflarning vakolatli vakillari tomonidan imzolangan taqdirdagina haqiqiy hisoblanadi. Ushbu shartnomaga kiritilgan qo'shimchalar uning ajralmas qismidir.

24.5. Ushbu shartnomada nazarda tutilmagan hollarda, O'zbekiston Respublikasining amaldagi fuqarolik qonunchiligi qo'llaniladi.

XXV. TARAFLARNING YURIDIK MANZILLARI VA REKVIZITLARI

LIZING BERUVCHI

AT «Aloqabank»

Vak/r _____

MFO _____

STIR _____

Manzil: _____

Tel.: _____

AT «Aloqabank» _____

(HKXKM/KXKM)

rahbari: _____

(imzo)

(F.I.Sh.)

Bosh buxgalter: _____

(imzo)

(F.I.Sh.)

M.O'.

Yuridik xizmat boshlig'i: _____

(imzo)

LIZING OLUVCHI

« _____ »

(tashkilot nomi)

X/r: _____

MFO: _____

STIR: _____

Manzil: _____

Tel.: _____

Rahbar: _____

(imzo)

(F.I.Sh.)

Bosh buxgalter: _____

(imzo)

(F.I.Sh.)

M.O'.

Mol-mulk arizasi

Lizing oluvchi ushbu bilan Lizing ob'ekti sifatida quyidagilarni belgilaydi:

_____.
(lizing ob'ekti nomi)

TARAFLARNING YURIDIK MANZILLARI VA REKVIZITLARI:

LIZING BERUVCHI

AT «Aloqabank»

Vak/r _____

MFO _____

STIR _____

Manzil: _____

Tel.: _____

AT «Aloqabank» _____

(HKXKM/KXKM)

rahbari: _____

(imzo)

(F.I.Sh.)

Bosh buxgalter: _____

(imzo)

(F.I.Sh.)

M.O'.

Yuridik xizmat boshlig'i: _____

(imzo)

LIZING OLUVCHI

« _____ »

(tashkilot nomi)

X/r: _____

MFO: _____

STIR: _____

Manzil: _____

Tel.: _____

Rahbar: _____

(imzo)

(F.I.Sh.)

Bosh buxgalter: _____

(imzo)

(F.I.Sh.)

M.O'.